

**MAKTAB O'QUVCHILARI BILIMLARINI KEYS TA'LIM
TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB RIVOJLANTIRISH**

Sardor Kutliyev sardorkutliyev@gmail.com

Mamatov javohir O'ybek o'g'li javoxirbekk20017@gmail.com

Gabidullin Ruslan Dalerovich ruslongabidullin@gmail.com

Annotatsiya: Maskur tezisda maktab o'quvchilarining Keys Stadi ta'lism texnologiyasidan foydalanib bilimlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan. O'quvchilarning dars vaqtida e'tiborini darsga jalg qilish uchun keys stadi metodidan samarali foydalanish zamonaviy ta'lism texnologiyalaridan foydalangan xolda darsning chunarliligini oshirish va dars jarayoninga xalal beradigan va o'quvchilarning bilim olishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: keys stadi, maktab, mustaqil ta'lismni rivojlantirish, dasturlash, axborot.

Bu metodning nomi inglizcha “**case-study**” so'zlaridan olingan. Bunda “**case**” – yashik, quti, gilof, jild, “**study**” – o'rganish, tadqiq qilish, ilm bilan shug'ullanish, o'quv fani, saboq olish, o'qish ma'nolarini bildiradi. Garvard universitetining huquq maktabida 1870 yilda qo'llanilgan 1920 yilda Garvard biznes-maktabi (GBM) o'qituvchilari yuristlarning o'qitish tajribasiga tayanib, iqtisodiy amaliyotdagi aniq vaziyatlarni tahlil etish va muhokama qilishni ta'larning asosiy usuli etib tanlashganidan keyin mazkur o'qitish uslubi keng tatbiq etila boshladi. Keys-stadi metodi bo'yicha o'rganilayotgan har bir muammo yoki mavzu yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar rejasi, ularni bajarish tafsiloti, natijalar va xulosalar yig'indisi alohida keysni tashkil qiladi. Bu metod muammolarni hal xal qilishda bosqichlarini loyihalash bo'yicha amaliy faoliyatlarini modellashtirish imkonini beradi. Bu texnologiya belgilangan mavzu yoki muammo va uning yechimiga doir qo'shimcha axborotlar, audio, video, elektron tashuvchilar, o'quv-uslubiy materiallar yig'indisi shu bilan birga muammoni hal qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, ularning natijalari va xulosalaridir.

XXI – Asr bu axborot texnologiyalar asri bo`lib bu davrda internet, telefonlar, kompyuterlar jadal tarzda rivojlandi, bu esa axborot olishni juda ham osonlashtrdi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2021 yilda dunyo bo'ylab mobil telefonlardan foydalanuvchilarning soni 5,3 milliardga yaqinlashdi, bu dunyo aholisining 67 foizini tashkil qiladi. Bilamizki, mobil telefonlardan foydalanishning afzal tomonlari bilan birga, salbiy oqibatlari ham mavjud. Ayniqsa, bolalarning ta'limg-tarbiyasida. Shunga ko'ra, maktabda o'quvchilarning mobil telefonlardan foydalanishi kerakmi yoki undan foydalanish tartiblariga qat'iy choralar belgilanishi lozimmi degan savol tug'ilishi

tabiiy. Ma‘umotlarga ko‘ra mobil telefonlardan uzoq muddat foydalanish ularning jismoniy va ruhiy holatiga, xususan, giperaktivlik, uyqusizlik, asabiylik, xotira va e’tiborning pasayishiga bu esa o‘z navbatida darslarni o‘zlashtirishiga ta’sirini o‘tkazadi. O‘quvchilarning bilim olish jarayonida faqatgina mobil telefonlar emas, balki darsdan keyin o‘z ustilarida mustaqil ishlamasliklarini ham aytish mumkin. Shu qatorda o‘quv adabiyotlaridagi matnlarni tushunish uchun “murakkabligi” va o‘qitishning asosan nazariy jihatdan yo‘naltirilganligi o‘quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga imkon bermaydi. O‘qituvchilarning ijodiy yondashuvini cheklaydi. Ba’zi hollarda, tizimlilik yetishmaydi va shuning uchun boshlang‘ich sinflarda olingan bilimlar yuqori sinflarda to‘ldirilmaydi va yuksak malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi, hozirgi zamon talablariga mos o‘quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlar kamligi, fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasida o‘zaro aloqaning zaifligi tizimdagি kamchiliklardan hisoblanadi.

Bugungi kunda o‘quv muassasalarini bitirib chiqayotgan o‘quvchi va talabalarda mustaqil fikrlash layoqati to‘la rivojlangan, deb bo‘lmaydi. Ularda ilm-fan yutuqlariga, amaliyotga tayangan yechimlar qabul qilish uchun malaka va bilim yetarli emas. Shu bois maktab, kollej va akademik litseylarni bitirgan yoshlarimizning ko‘pchiligi mustaqil hayotda o‘z o‘rnini topa olmayapti. Sir emaski, akademik litseylar va kasbhunar maktabi bitiruvchilarining taxminan 10 foizigina oliy o‘quv yurtlariga birinchi yili o‘qishga kirmoqda, xolos. Shu bois qo‘sishma ta’lim — repetitor xizmatiga katta ehtiyoj mavjud.

Keys-stadi yordamida maktab o‘quvchilarini aniq fanlar bo‘yicha bilimlari yanada rivojlantirish uchun kerakli keys topshiriqlarini yozma ko‘rinishda tayyorlash o‘quvchilarning keys topshirig‘ini mustaqil o‘rganishlari va muhokama etishlari shu qatorda o‘qituvchi va audito‘rya hamkorligida keyslarni tahlil qilish muhokama yechimlarida muhim tamoyillarga rioya etish kerak.

Misol tariqasida maktab o‘quvchilarining Informatika fanidan masala yechish qobilyatlarini rivojlantirish uchun keys yaratamiz.

Informatika fanida qo‘llaniladigan keyslarning tuzilishi tarkibi:

| Keys turi | Informatikadan keys | |
|-------------------------------|--|--|
| Amaliy | Keysning mazmuni | Keys topshiriqlarining qisqacha bayoni |
| Talimiylar (o‘rgatuvchi) | Informatika fanidan masala yechish qobilyatlarini rivojlantirish | Keys topshirig‘i mazmuni bayon qilinadi va matametik masalalarga yechimlar izlanadi. Keys topshiriqlarida ayrim ma‘lumotlar to‘liq bo‘lмаган shaklda beriladi. |

Mavzu: Informatika fanidan masala yechish qobilyatlarini rivojlantirish




Keysning asosiy maqsadi: Informatika fanidan maktab o‘quvchilarining masla yechish qobilyatini rivojlantirish va shunga doir masala va misollar ishlab chiqish yo‘llari.

O‘quv faoliyatidan kutilyotgan natijalar:

- Bu orqali o‘quvchilarining fikirlash qobilyatlari rivojlanadi.
- Dasturlash tillari bo‘yicha boshlang‘ich bilimlar shakillanadi.

O‘quvchilar bilish kerak bo‘lgan fo‘rmulalar va qoydalar: Karra jadvali, sonning bo‘linish belgilari, Tenglama tuzishni va yechishni bilishi, Sanoq sistemalari 2, 8, 10, lik sanoq sistemalarini bilish

Keys topshiriqlari:

| | | |
|--|----|--|
|  | 1. | Quyidagi hisoblashni bajarishda triada va tetrada kodidan foydalaning: 1438+578 1438–578 |
|  | 2. | Sakkizlik sanoq sistemasida ko‘paytmani hisoblang. 72 * 5 61 * 3 |
|  | 3. | Ikkilik sanoq sistemasida ifodani hisoblang. 1001 · 101–1110+111 |

Xulosa: Informatika fanini o‘qitish bo‘yicha Urganch shahridagi va Bog‘ot tumanidagi bir nerchta maktablarning yuqori sinf o‘quvchilarida bu metoddan foydalangan xolda dars mashg‘ulotlarini o‘tkazildi. Darslarda o‘quvchilarining darsga qiziqishi anchagina o‘sdi va dasrdagi ma’lumotlarni eslab qolishlari oddiy darslarga nisbatan 15 % dan 25 % gacha o‘sishi kuzatildi. Dars vaqtida o‘quvchilarga informatikaga doir yangi ma’lumotlarni to‘liq bo‘lmagan shaklda taqdim qilindi va o‘sha ma‘umotlarning yetishmayotgan qismini o‘quvchilar bilan hamkorlikda izlash olib borildi hamda turli xil savollarga o‘quvchilarining o‘zлari mustaqil javob topishdi. Bu metoddan foydalinishda o‘quvchilarining darsga qiziqishlari yanada oshdi va eng asosiysi o‘quvchilarining o‘zлari mustaqil ravishda yangi bilimlarni izlab o‘z ustilarida mustaqil ravishda ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- “Maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan davlat talablari” Toshkent.2017 yil.
- Nurmatova M.SH. Xasanova Sh.T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o’rgatish metodikasi. “Sho’lpon” T.:2010y.
- Azizova. Maktabgacha katta yoshdagи bolalarda qO‘G‘irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish. Toshkent – 2010
- Turg‘unov S.T. va boshqalar. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. T.: “Sano-Standart”, 2012 – 100 b.
- Turg‘unov S.T., Axmadjonova N.M. Maktabgacha ta’lim muassasalarida boshqaruv faoliyati algoritmi. // Xalq ta’limi. –Toshkent, 2012 – №1. – B. 133-134